





**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**QASHQADARYO  
VILOYATIDA XIZMATLAR  
SOHASINING  
RIVOJLANISHI**

**2022- Yilning yanvar-sentabr oylarida**



## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

### XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi  
- **11466,9**  
mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
**67,4 %**

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining o'sish  
sur'atlari –  
**114,0%**




2022- yil  
yanvar-sentabr

### SOHASI

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
**3338,4** ming so'm

Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi –  
**59,4%**

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmalarning  
o'sish sur'atlari –  
**111,6%**




**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-sentabr**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **11 466,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 151,8** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,0%** ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari**








## Dastlabki ma'lumotlar

## 2022- yil yanvar-sentabr


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>11 466,9</b>	<b>114,0</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	555,2	123,5
Moliyaviy xizmatlar	1981,3	124,2
Transport xizmatlari	2453,2	110,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2353,7	109,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	335,6	104,9
Savdo xizmatlari	3674,7	109,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	281,7	110,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	421,1	125,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	142,0	103,0
Ijara xizmatlari	287,9	118,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	394,6	105,8
Shaxsiy xizmatlar	387,9	109,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	144,0	106,0
Boshqa xizmatlar	407,9	143,1




*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-sentabr*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da






## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **2151,8** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **10,1** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,4** % ni tashkil etdi.


## Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Boshqa  
transport  
faoliyati



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **95,9** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,0** % ni tashkil etgan.




**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,0** % ni tashkil etib, bu **3 674,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1929,6** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,2** % iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari








*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-sentabr*

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **85,8 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **9,4 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**4,8 %**) tashkil etdi.

**Savdo xizmatlarining tarkibi, % da**  
*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)*



*Taqqoslash uchun:* 2021- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo ulushi **85,8 %** ga yetdi





*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-sentabr*



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## **Moliyaviy xizmatlar**

*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)*

2022- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1981,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1569,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.




2022- yilning shu davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **17,3** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **16,8** % ni tashkil etgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **412,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **24,2** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **32,8** % ni tashkil etgan.



## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,2 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **5,3 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar




Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,6 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **4,8 %**.



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-sentabr*




Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari








Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **421,1** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,7** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **125,9** ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.  
yanvar-sentabr


2022- y.  
yanvar-sentabr



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar







## Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr


2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **66,7** mlrd. so'mga ko'paydi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2021- y.  
yanvar-  
sentabr


Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2022- y.  
yanvar-  
sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **94,1** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **94,2** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligi, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

3338,4  
ming so'm

532,3  
ming so'mga



111,6 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3338,4** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,6 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2806,0** ming so'mni tashkil etgan.

2021 - yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,3%** da qayd etilgan.